

INSONLARNI O'SIMLIK VA HAYVONOT OLAMIGA TA'SIRI VA ULARNING QIRILISH SABABLARI

Baratova Parizod

Qarshi shahar 15-maktab 11-A sinf o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21484282>

O'simlik va hayvonlar Yerning – hayot qobig'i, biosferaning asosiy komponentlaridan bo'lib, tabiiy resurslar orasida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Oqilona foydalanilganda o'simlik va hayvonlar tiklanadigan va cheksiz mahsulot beradigan manbaaga aylanishi mumkin. Biosferadagi o'ziga xos tabiiy muvozanat ko'p jihatdan o'simlik va hayvonlarning biologik xilma-xilligini saqlash bilan bog'liqdir.

O'simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga 380 mlrd. tonna organik modda hosil qiladi, buning 330 mlrd. tonnasi dengiz va okean o'simliklariga, 40 mlrd. tonnasi o'rmonlarga, 8-10 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. O'simliklar havoni xushbo'y hid, fitonsid deb ataluvchi uchuvchan moddalar bilan boyitib, kasallik tarqatuvchi bakteriyalarni qirib tashlaydi. Ular xilma-xil shovqinlarni so'ndiradi va changlarni yutib qoladi. Havoda kislorod miqdorining doimo yetarli darajada mavjud bo'lib turishini ta'minlab, kishilar hayoti uchun eng muqobil mikroiklimni vujudga keltiradi. Olimlarning aniqlashicha, 1 gektar 20 yoshli qarag'ayzor har yili 9,35 tonna CO₂ ni yutib, 7,25 tonna O₂ chiqaradi. 1 ga maydonga o'rtacha 60 yoshli qarag'ayzor yiliga 10 tonna O₂ ajratib chiqarsa, 40 yoshli emanzor 14 tonnaga yaqin O₂ ni ajratib chiqaradi. O'rmonlar tabiiy muhitni tozalovchi, atmosfera va gidrosfera muvozanatini saqlovchi vosita. Hisoblashlarga qaraganda 1 gektar oq qayin o'rmoni 1 kunda 47 ming litr suvni bug'ga aylantiradi. Bu suvni tozalash, havoni namlantirish va yog'in yog'ishiga imkon yaratilishi demakdir.

Shuningdek hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo'lib, tabiatda modda va energiya almashinuvida ular ham muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'lib turadi. Hayvonlar biosferaning eng asosiy qismi bo'lib, o'simliklar bilan birgalikda geografik qobiqda kimyoviy elementlarning migratsiyasida katta rol o'ynaydi. Hayvonlar organik moddalardan quyosh energiyasi ta'sirida o'simliklar vujudga keltirgan tayyor organik mahsulotlarni iste'mol qiladi. Bir-birlari va o'simliklardan oziqlangan hayvonlar sayyoramizdagi moddalar almashinuvida aktiv qatnashadi.

Sayoramiz hayvonot dunyosi hozirgi ma'lumotlarga ko'ra 2 mln turdan iborat. Bular orasida xashoratlar birinchi o'rinda (0,6-1,0 mln tur), so'ng qushlar va sutemizuvchilar turadi. Hayvonlar turlarini tarkibi va soni ilgari zamonlardan buyon o'zgarib kelmoqda.

Tabiiy sharoitning o'zgarishi ta'siri ostida ayrim turlarning qirilib ketishi va tarqalishining qisqarishi sodir bo'lgan. Lekin tabiiy o'zgarish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib juda sekin boradi. Bunday o'zgarishning xavfi katta emas. Ammo inson ta'sirida turlar sonining o'zgarishi va butunlay yo'qolishi ancha tez ro'y beradi. Bu ta'sir qadim zamonlardan boshlangan, lekin XIX-asrda ayniqsa kuchaydi. Inson xo'jalik faoliyati yo'qolib ketdi. Insonning hayvonot dunyosiga ta'siri ikki yo'l bilan bo'ladi: bevosita va bilvosita. Insonning hayvonot dunyosiga ta'siri bevosita asosan go'sht, mo'yna, yog' va boshqa mahsulotlar olish uchun hayvonlarni ov qilishdan iboratdir. Inson paleolit davrida olov va qurol ishlatishni o'rgangandan buyon hayvonlarni ko'plab ovlab, ularga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. Lekin yer yuzining turli joyida insonning hayvonlarga ta'siri turli vaqtda va turli darajada bo'ladi.

Inson Yevropada bundan 1000 yil burun o'rmon fili, o'rmon karkidoni, keyinroq, yirik bug'ilar, junli karkidon, mamont bilan oziqlanuvchi yirtqichlardan g'or arsloni, va boshqalarning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Shimoliy Amerikada esa inson bundan qariyb 300 ming yil avval mamont bilan birga mastodont, megateriy, ot, tuya hamda tuyalar oilasidan bo'lgan ulkan lama, qora tishli mushuk, yirik laylaklar, katta yirtqich qush teratronlarni yo'qotdi. Yirik hayvonlarning kamayib ketishi va yo'qolishi odamlarni ovchilikdan chorvachilikka va dehqonchilikka o'tishiga majbur qildi. Lekin shunga qaramay hayvonlarni insonlar tomonidan bevosita qirish ko'p asrlar davom etdi. Transport vositalarini rivojlanishi insonga yerning uzoq chekkalariga borishiga imkon berdi va hamma joyida yangi o'zlashtirish hayvonlarning shavqatsiz qirish bilan birga bordi. Qirilib ketgan hayvonlarga ba'zi bir misollar: Yevropa qoramollarining birinchi ajdodi bo'lgan tur XVII-asrda yo'q bo'lgan. Qadimgi zamonlarda bu hayvon Yevropadan tashqari Sibirda, Qozog'istonda kichik Osiyda va Shimoliy Afrikada yashagan. Misrda tur eramizdan oldingi 2500-yilgacha qirib bitirilgan. Eng so'nggi tur 1627-yili Varshava shahri yaqinidagi o'rmonda halok bo'lgan.

Bir vaqtlar Yevropa dashtlarida evvoyi ot tarpan juda ko'p bo'lgan. Dashtlarni dehqonchilikda o'zlashtirish va bu otlarni ovlash oqibatida ular xam qirilib bitdi.

Tarpan G'arbiy Yevropada yo'q qilingan. Polshada XIX-asr boshigacha yashadi. Oxirgi tarpan Askaniya Nova yaqinida 1879-yilda o'ldirilgan. Tinch okeanining shimolida tarqalgan bo'yi to'qqiz metr ga, diametri olti metr ga, og'irligi to'rt tonnagacha yetadigan va go'shti mazzali dengiz eki stellerov sigiri ham ko'p ovlanib yo'qolib ketdi. Janubiy Afrikada tarqalgan kvaga (Yo'lbars ot) terisidan mahalliy aholi g'alla saqlash uchun qop tikar edi. 1873-yilda bu tur ham butunlay tugadi. Ko'pgina qush turlari ham qirilib bitdi. Dront deb ataluvchi, bo'yi ikki metr ga yetadigan, og'irligi 20 kg gacha bolgan ucha olmaydigan qushning oxirgi vakili Mavrikiya orollariga Gollandiyalik birinchi dengizchilar tushganidan (1598y) 83 yil keyin ya'ni 1681-yilda o'ldirildi. Shimoliy Amerikada juda ko'p miqdorda bo'lgan sayer kaptarlarni mahalliy ovchilar chiroyli patlari va go'shti uchun ov qilishgan. Bu kaptarlar shunchalik ko'p bo'lganki, uchganda osmonni parda qoplagandek tuyular edi. Yevropaliklar kelgandan keyin bu qushlar donli ekinlar kushandasi sifatida eppasiga qirildi. Oxirgi sayer kaptar 1941-yil hayvonot bog'ida o'ldi. Shu bilan bu qushturi yo'qoldi. —Ko'zoynakli eki steller baklani birinchi marta 1741-yilda steller tomonidan Berin orollarida tasvirlab ezilgan. Komandor orollariga doimiy aholi kelib o'rnashgan 1826 yilga qadar bu qush ko'p edi. XIX-asr o'rtalariga kelib, bu qush butunlay qirib yuborildi. 1842 yilga qadar Shimoliy Levrentiy va Labrador qirg'oqlarida Labrador gagasi deb ataluvchi qush juda ko'p uchrar edi. Bu qush orollarda to'da-to'da bo'lib uya qurar edi. Uning oxirgi vakili 1852 yilning kuzida Galifaks ko'rfazida o'ldirilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Kapitalistik xo'jalikning tashkil topishi bilan ovchilik kuchaydi, u industrial asosga o'ta bordi. Buning ustiga evvoyi hayvonlarni ov qilish turlarning xususiyatlarini, ularning tiklanish imkoniyatlarini hisobga olmasdan olib borildi. Natijada butunlay qirilib ketish arafasida qolgan turlarning soni keskin oshdi, yo'q bo'lib ketgan hayvonlarning soni ko'paydi. XIX-asr oxiriga kelib dengiz mushugi, kalan va boshqalar qirilib bitay deb qoldi.

Hozirgi vaqtda Yer sharidagi eng yirik hayvon bo'lgan kit ham juda kam qolgan. Buning ustiga Dunè okeani suvining ifloslanishi natijasida kitlarning —o'zini-o'zi o'ldirish hollari ko'p uchramoqda, qirg'oqlarga tashlanib halok bo'lmoqdalar. Insonning hayvonlarga bevosita salbiy ta'siriga Shimoliy Amerika bizonla-rining fojiasi ham misol bo'la oladi. Bu yerda Yevropaliklar

kelganga qadar 75 mln. bizon bor edi. Ba'zi sayèhlarning hikoya qilishicha, bizon podalarinig o'tib bo'linishi bir necha soatlab kutishga to'g'ri kelgan paytlar bo'lgan. Yevropaliklar g'arbga tomon yerlarni o'zlashtirib borgan sari bizonlarning qirilish soni kuchaydi. Bizonlarning faqat ov maqsadida emas, balki tomosha, o'yin kulgu va ermak uchun ham o'ldirar edilar. Yo'qolib borayotgan noyob hayvon turlarining yana ko'payishi so'roq ostidadir. Hozirda bunday hayvon turlarini davlat muhofazasiga olishi shart bo'lib qoldi. Ayrim joylarda qimmatbaho hayvon va o'simlik turlari uchun qo'riqxonalar, milliy bog'lar tashkil etildi. Bundan tashqari ularni muhofaza qilishda Qizil kitob va halqaro bitimlarni ahamiyati katta. Birgina baliq ovlash va boshqa dengiz hayvonlarini ovlash bo'yicha 70 dan ortiq shartnomalarni tuzilganligi buning dalilidir. O'simliklar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar esa hayvonlarning yashashiga, rivojlanishiga va tarqalishiga ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega so'nggi yillarda insonning xo'jalik faoliyati natijasida flora va faunaga salbiy ta'sir kuchaydi. Shu sababdan, ustyurt qo'yi, burama shoxli echki, qor barsi, buxoro bug'usi va boshqa hayvonlar yo'qolish arafasiga kelib qoldi.

Insonning salbiy ta'siri natijasida planetamiz o'simlik va hayvonlar qoplami ancha qisqargan, ayrim davlatlarda bu jaraèn hali ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda fauna va flora olamidan ratsional foydalanish va ularni tiklash muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Sayyoramizdagi o'simliklar va hayvon resurslari nihoyatda katta va rang-barang, lekin bu resurslar ulardan faqat oqilona foydalanilgan vaqtdagina hamda ularning tiklanish sharoiti ta'minlangandagina kishilar jamiyatining talablarini qondira oladi. XXI asrga kelib, sanoat korxonalarining rivojlanishi natijasida hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligi tobora kamayib bormoqda. Bu muammoni ijobiy hal qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu yo'lda tashqi hamkorlikni yanadamustahkamlash muvaffaqiyat garovidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. To'xtayev A.S. Ekologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.